“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=367

2026-yil
5-son
may
ISSN 3093-8546



Xonliklar davri qozi, muftiy va hukmdorlarning islom huquqi rivojidagi o‘rni

Saidakbar Muhammadaminov,
O‘zR FA Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi
Sharqshunos
e-mail: saidusul@mail.ru

Аннотация. Ushbu maqolada xonliklar davrida qozi, muftiy va hukmdorlarning islom huquqi rivojidagi hissasini ko‘rib chiqamiz. Odatda islom qonunchiligini ishlab chiqishda o‘rta asrda asosan faqih va muftiylar shug‘ullanishgan bo‘lsa, keyinchalik bu ishda qozixona mutasaddilari va hatto hukmdorlar ham faol ishtirok etishgan. Markaziy Osiyoda xonliklar davrida o‘rta asrda yaratilgan ko‘plab fiqhga oid asarlarda bayon qilingan masalalardan keyingi davr qozi va muftiylar ittifoqida ixtiyor qilingan fiqhiy masalalar majmuidan iborat to‘plamlar (jo‘ng, majmua) yaratildi. Bu to‘plamlar qozilik amaliyoti uchun keng qo‘llanib kelindi.

Калит сўзлар. Markaziy Osiyo, muftiy, qozi, xon, fiqh, fatvo, jo'ng, majmua, tarjima

Аннотация. В данной статье рассматривается роль кадиев (судей), муфтиев и правителей в развитии исламского права в период существования среднеазиатских ханств. Если в эпоху раннего Средневековья разработкой норм исламского законодательства занимались преимущественно факихи (правоведы) и муфтии, то в последующие периоды в этот процесс активно включились представители судебных ведомств (казихона) и даже сами правители.Эти сборники представляли собой свод наиболее актуальных правовых вопросов, отобранных в ходе совместной деятельности судей и муфтиев, и широко применялись в судебной практике того времени.В период ханств также создавались труды по фатвам (правовым предписаниям), написанные либо по инициативеправителей, либо при их непосредственном авторстве.

Ключевые слова. Центральная Азия, муфтий, кази, хан, фикх, фетва, рукопись, джунг, маджмуа

Annotation. This article examines the roles of qadis (judges), muftis, and rulers in the evolution of Islamic law during the period of the Central Asian khanates. While the development of Islamic legal norms in the early Middle Ages was primarily the domain of faqihs (jurists) and muftis, subsequent

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

periods saw active participation from judicial officials (qadi-khana) and even the sovereigns themselves. During this era, specialized collections of legal opinions known as jungs or majmuas were compiled. These volumes aggregated the most relevant legal issues selected through the collaborative efforts of judges and muftis. These compendiums served as practical manuals, widely implemented within the judicial proceedings of the time. The khanate period was also marked by the creation of works on fatwas (legal rulings) produced either under the direct patronage of rulers or authored by them personally.

Keywords. Central Asia, mufti, qadi, khan, fiqh, fatwa, manuscript, jung, majmūʿa.

O‘tgan asr davomida G‘arb islom huquqi tarixshunosligida islom huquqi davri X asrdan tortib XX asrgacha hech qanday o‘zgarishsiz qolgani haqidagi qarashlar uzoq yillar davomida ustuvor bo‘lgan. Keyinchalik G‘arb sharqshunoslari tomonidan musulmon jamiyatining zamondan orqada qolganligi va turg‘unlik holati sifatida talqin qilingan ushbu qarashlarga javoban, islomshunos olimlar o‘z tadqiqot yo‘nalishlari va metodologiyasini tubdan qayta ko‘rib chiqishga kirishdilar. Ular bu muammolarni chuqur tahlil qilish orqali islom huquqi aslida doimiy rivojlanib, yangi va original yechimlar taklif etganini ilmiy asosda ko‘rsatib berishdi.

Shu qarashlarning mantiqiy davomi sifatida Markaziy Osiyoda xonliklar davrida ham islom huquqiy an’anasi o‘zining amaliy va dinamik xususiyatini saqlab qolganini kuzatish mumkin. Xususan, xonlarning davlat boshqaruvi amaliyoti, shuningdek, qozi va muftiylar tomonidan chiqarilgan fatvolar hamda qabul qilingan ma’muriy qarorlar mavjud ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Bu jarayonda fiqhiy me’yorlar tayyor qolipda qo‘llanilmasdan, balki mahalliy urf-odatlar, iqtisodiy munosabatlar va ma’muriy ehtiyojlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan. Natijada xonliklar davri huquqiy amaliyoti islom qonunchiligining turg‘un emas, balki o‘zgaruvchan voqelikka moslashuvchan tizim ekanini yaqqol namoyon etadi.

Mazkur maqolada xonliklar davrida qozi va hukmdorlarning islom huquqi rivojlanishi jarayonidagi ishtirokini aniqlashga harakat qilamiz. Bu mavzuni yoritishdagi katta muammolardan biri — manbalarning tizimli qilib o‘rganilmaganidir. Chunki fiqhga oid manbalarning ko‘pligiga qaramay, ayni zamondagi qozi yoki muftiylarning chiqargan fatvolari tizimli ravishda shakllantirilib, kataloglashtirilmagan. Shuningdek, hukmdorlar tomonidan islom qonunchiligiga oid qarorlar majmuini to‘liq aks ettiruvchi aniq manbalar mavjud emas. Ba’zi tadqiqotchilar ularning hukmlari (qaror va farmonlari) shariat me’yorlariga muvofiq bo‘lishi lozimligi sababli shariatning tarkibiy qismi sifatida baholanganini ko‘rsatsa, ayrimlari esa bu hukmlar mustaqil shar’iy nufuzga ega bo‘lmaganini ta’kidlashadi.

Xonliklar davrida islom huquqi rivojida ikkita jihatga e’tiborni qaratmoqchiman:

birinchisi: sultonlarning o‘zlari yoki ularning tashabbusi bilan yozilgan fiqhiy asarlar bo‘lib, ular mintaqada islom huquqining ustuvorligi va mustahkamlanishiga sabab bo‘lgan. Bu holatda qozi va muftiylarning ham rolini ko‘rsatib o‘tish lozim;

ikkinchisi: jo‘nglar tarkibida mustahkam o‘rin olgan qozi, muftiy va amirlar o‘rtasida ko‘rib chiqilgan hamda amaliy ahamiyat kasb etgan ayrim masalalar haqida so‘z boradi.

Fatvolarni tartibga solish va jamlash ishlari dastlab obro‘li muftiylar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, keyinchalik bu jarayonda xon va sultonlar ham faol tashabbus ko‘rsata boshladilar. Mazkur holat mintaqada islom huquqining institutsionallashuvi, mustahkamlanishi va izchil rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Markaziy Osiyoda mug‘ullar davridan boshlab hukmdorlarga bag‘ishlab yozilgan asarlar yuzaga kela boshlagan. Masalan, mug‘ullar davrida Buxoro hamda Xurosonda ko‘p yillar davomida qozilik qilgan qozi Alouddin Buxoriy (XIII asr) “Hayrat al-fuqaho” nomli asarini elxon amiri Navro‘zbekxonga (vaf. 696/1297-y.) yozib taqdim etgan. Fors tilida bitilgan mazkur asarning ko‘plab nusxalari aynan xonliklar davrida ko‘chirilib, keng tarqalgan.

Shuningdek, shayboniylar davrida ham hukmdorlarning fiqhiy asarlarga bo‘lgan qiziqishi ortishi hamda ularga atab asarlar yozilishi ko‘payganini kuzatish mumkin. Masalan, Ali ibn Muhammad Muxtoriy Kubroviy Xorazmiy (XVI asr) o‘zi yozgan fatvo to‘plamini Shayboniyxonga, “Fatovoyi Aliya” fatvo to‘plamini esa Ubaydullohxonga bag‘ishlagan. Astronom va islom ilmlari bilimdoni Abdulaliy al-Barjandiy (vaf. 934/1528) “Sharh Manor al-anvor” usul al-fiqh sharhini shayboniy Ubaydullohxonga, faqih Abu al-Ma’oli ibn Xoja al-Buxoriy (vaf. 970/1562-y.) esa “Hasab al-muftiy” fiqhiy asarini Shayboniy Sulton Pir Muhammadga (963–968/1555–1560-yy.) bag‘ishlagan.

Xonliklar davrida hukmdorlarning bevosita tashabbusi bilan fatvo to‘plamlari tuzila boshlandi. Bunda nafaqat xonlar, shuningdek, ba’zan shahar hokimi tomonidan ulamolardan jamiyatda sodir bo‘layotgan jinoyatlar va ular bo‘yicha shar’iy qonunlarni ishlab chiqarish va alohida risolalar yozib berish so‘ralgan. Masalan, Ashtarxoniy Imomqulixon (1611–1642) davrida Buxoro shahar hokimi bo‘lgan Shukurbiy otaliqning iltimosiga ko‘ra, Samarqandda so‘ngra Buxoroda yirik muftiy bo‘lgan Muhammad Sharif al-Husayniy al-Buxoriy ibn Muhammad Sa’id al-Buxoriy (XVII asr) jamoat tartibini buzganlar, og‘ir jinoyat sodir etganlar va hokazolarga nisbatan jazolarni belgilash hukmlarini qamrab olgan “Risola al-mashkuriya” (“Tashakkurga sazovor bo‘lgan risola”) risolasini tuzib bergan. Shu muallif tomonidan ashtarxoniy Nodir Muhammadxonning (1642–1645) talabi bilan *“Favoid Xoqoniyya”* risolasini 1053/1643–1644-yilda yozib bergan. Muhammad Sharif al-Husayniy unda, asosan, mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tartibga solish maqsadida

hokimiyat, hukmdorga itoat etish, bog‘iylar masalasi, dor al-islom va dor al-harb, shia firqasi, zakot, ushr va bayt al-mamluk, tijorat kabilarning qonun mexanizmlarini bayon qilib beradi.

Shuningdek, ashtarxoniy Subhonqulixonga (1680–1702) atab Mir Habibulloh Husayniyning Jo‘ng to‘plami (*“Majmuat ar-rivoyot”*), Buxoro muftiysi Abdulg‘aniyning *“Fatovoi Subhoniya”* to‘plami yozilgani aniqlandi. Bu ikkila asarda, asosan, shari’at ahkomlari yoritilishi bilan birga unga yana o‘z va oldingi davrlarda ko‘zga ko‘ringan ulamolarning fatvolari (rivoyat hujjat ko‘rinishida) jamlangan.

Xonliklar davrida fiqhiy asarlarni mahalliy tillarga (turkiy va forsiy) o‘girishda sultonlarning xizmati beqiyos bo‘lib bu bilan oddiy aholining huquqiy savodini oshirishga xizmat qildi. Bu borada Xiva sultonlarining xizmati alohida ahamiyatga molikdir. Jumladan, Abulg‘ozi Bahodurxon (1644–1663) buyrug‘i bilan Salohiddin al-Haraviyning (XVI asr) arab tilida yozilgan *“Sharh al-Muxtasar al-viqoya”* sharhini fors tiliga, Muhammad Rahimxon Firuz (1864–1910) Abu al-Ali ibn Muhammad al-Husayn al-Barjandiyning (vaf. 1525-y.) “Sharh Muhtasar al-viqoya” sharhini arab tilidan turkiy chig‘atoy tiliga tarjima qildirishdi.

Xonliklar davrida ba’zi bir hukmdorlar mintaqada islom qonunchiligini yagona tizimini yaratish borasida harakatlar bo‘lgan. Masalan, Buxoro amiri Shoxmurodning (1749–1800-yy.) o‘zi *“Fatovo ahli Buxoro”* asarining birinchi jildini tuzishga ulgurdi. Amir Xaydar (1800–1825) ham fiqhga oid katta bo‘lmagan “al-Favoid al-Alfiya” (“Mingta foydali masalalar”) asarini yozdi. Bundan oldin, ya’ni hududda shari’at qonunlarini yagona kodeksini yaratish bo‘yicha boburiy Avrangzeb Olamgirning (1659–1707) tashabbusi bilan tuzilgan *“al-Fatovo al-Olamgiriya”* to‘plamini ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, Eron podshosi Shohi Abbos tomonidan ham o‘z xalqining huquqiy savodini oshirish maqsadida *“Jomi’ Abbosi”* nomli fiqhiy majmuasini yaratdi. Ko‘rinib turganimizdek, XVII asrdan hukmdorlar o‘z boshqarayotgan hududlarda huquq sohasini bir tizimga keltirishda fatvolarni to‘plash va tuzish siyosatini olib borishdi.

Markaziy Osiyoda xonliklar davrida qozi va muftiylar orasida keng tarqalgan, o‘zlarining qozilik faoliyatida ko‘plab masalalarga huquqiy yechim berishda foydalanilgan jo‘ng to‘plamlari hukmdorlar nazaridan ham chetda qolmagan. Masalan, 1814-yilda Amir Xaydar buyrug‘i bilan mashhur kotib Abdulloh Balxiyga Abu Lays as-Samarqandiyning “Xizanat al-fiqh” asari matni hamrohida tuzilgan jo‘ng to‘plamini ko‘chirtiradi. Shuningdek, Sayyid Abdulahad Bahodurxon (1885–1910) inoyati bilan *“Jo‘ng ma’a Muxtasar al-viqoya”* to‘plami yaratiladi. Bu kabi to‘plamlar mintaqada qozilik ishlari bilan shug‘ullanayotgan muftiy va qozilar uchun dasturilamal (qo‘llanma) sifatida islom huquqini muayyan tizimga soluvchi vazifasini o‘tagan.

Maqola boshida ko‘tarilgan ikki jihatdan ikkinchisi xonliklar davrida yaratilgan ayrim mahalliy jo‘nglar tarkibida mustahkam

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

o‘rin olgan qozi, muftiy va hukmdorlarning ba’zi hukmlari haqida so‘z yuritsak. Bu bilan biz ayrim olimlar tomonidan ilgari surilgan islom huquqi hech qanday o‘zgarishlarga yoki transformatsiyaga yuz tutmagan degan qarashlarning asossiz ekanligini, aksincha, u ham zamonga qarab moslashish mumkinligini ko‘rsatib berishdan iboratdir. Shuningdek, islom huquqshunoslari – faqihlar – islom tarixining ilk va o‘rta asr davrlarida davlat ta’siridan mustaqil holda faoliyat yuritgan, degan qarashlar ham biroz bahsli bo‘lib unga javob tarzida bir qator olimlar, jumladan, Gay Byurak, Sami A. Ayyub, Umar Avass o‘z tadqiqotlarida o‘rta asrlarda sultonlarning shar’iy qarashlari (shar’iy hukmlari, farmonlari va hokazo) ulamolarning fiqhiy kitoblarida aks etgani va ularning transformatsiyasi haqida o‘z fikrlarini bildirib o‘tishgan. Bunda, asosan, Usmonli imperiya davrida yashagan bir qator faqihlar, jumladan, shayx al-islom Abu as-Su’ud Muhammad al-Imodiyning (1490–1574) *al-Ma’ruzot,* at-Tarsusiyning *“Tuhfat at-turk”* va Dada Efendiy *“as-Siyosati-sh-shar’iya”* kabi asarlari tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan. Ularda sultonning jazo choralarini (siyosa) qo‘llashdagi vakolati qonuniy va shar’an asosli ekanligi, uni jamiyatda tartib va barqarorlikni saqlash uchun zarurligi, qozilarni tayinlash va lavozimidan ozod etish va ularni mazhabdagi *rojih* (e’tiborli) fikrlarga rioya etishga majbur qilish, ayrim ishlar bo‘yicha hukm chiqarishni cheklash yoki ularga muayyan huquqiy siyosat qoidalariga amal qilishni buyurish vakolati haqida muhim ma’lumotlar berilgan.

Xonliklar davri Movarounnahrda ham hukmdorlar bilan shari’at vakillari bilan o‘rtasida juda yaqin munosabatlarda bo‘lishgan. Mazkur davrda qozi va muftiylar o‘z asarlarida mahalliy hukmdorlarning buyruq va amrlari inobatga olinishini va qonuniy (shar’iy) ekanligini ham bayon qilib borishgan. Bunday masalalar, asosan, qo‘lyozma jo‘ng to‘plamlarida yaxshi aks etgan. Jo‘nglarda turli fiqhiy matn va fatvolar bilan bir qatorda hukmdorlar muftiy va qozidan biron masala bo‘yicha shar’iy hukm so‘ralgan savol va javob matni, ularning ko‘rsatma va amrlarini ham uchratish mumkin. Masalan, Ashtarxoniy davrida katta muftiy lavozimida ishlagan Muhammad Sharif al-Buxoriyning qo‘lyozma *Jo‘ngi* to‘plamida hukmdorlar bilan bog‘liq bir nechta fiqhiy masalalarni bayon qiladi. Jumladan, “Sulton bir guruh kishilarga shahar yoki viloyat hududidagi ayrim yerlarni masjid uchun ajratish, uni kengaytirish yoxud masjid ehtiyoji uchun vaqf qilib berish buyrug‘ini bersa, uni bajarilishi shariat nuqtai nazardan joiz yoki nojoizligini hududni qay tarzda bosib olingani bilan bog‘liqdir. Shahar **jang yo‘li bilan ()** fath etilgan taqdirda, sulton farmoniga rioya etish joiz sanaladi, ammo bu farmonlar yo‘lovchilar hamda umumiy foydalanish subyektlarining manfaatlariga putur yetkazmasligi lozim. Chunki jang orqali o‘zlashtirilgan yerlar g‘oziylar mulki hisoblanadi va bunday yerlar ustida tasarruf qilish (idora etish) huquqi sulton ixtiyorida bo‘ladi. Sulton egallangan yerlarni quyidagilarning ixtiyoriga berish mumkin: agar xohlasa, ularni g‘oziylar (urushda

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

qatnashganlar) o‘rtasida taqsimlaydi; xohlasa, aholini shaxsan (ya’ni jon jihatidan) va yerlari bilan birga omon qoldirib, ularni mulk huquqidan mahrum etmaydi yoki agar xohlasa, yerlarning bir qismini g‘oziylarga, qolgan qismini esa aholining o‘zida qoldiradi. Shu boisdan, jang orqali o‘zlashtirilgan yerlar ustidan sultonning tasarruf etishi islom huquqiga ko‘ra to‘g‘ri hisoblanadi. Agar shahar yoki biron bir hudud sulh yo‘li bilan zabt etilgan bo‘lsa, u holda yerlar o‘z egalari mulkida qoladi va imom (sulton) bu yerlar ustida tasarruf etish huquqiga ega bo‘lmaydi. Shu sababli, bunday holatda imomning buyrug‘i yoki tasarrufi shariat nuqtai nazaridan e’tiborga olinmaydi”.

Ushbu qoida fiqhiy adabiyotlarda yerlarning huquqiy maqomini belgilashda muhim mezon sifatida e’tirof etilgan. Zo‘rlik bilan bosib olish (*fath ‘anva*) holatida yerlar umumiy jihatdan sulton ixtiyorida bo‘lib, ularni vaqf yoki boshqa maqsadlarda taqsimlash haqida qaror qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan. Tinch yo‘l bilan zabt etish (*fath sulhan*) holatida esa mulk egalari huquqi saqlanib qolingan va bu holda hukmdorning tasarrufi shariatga ko‘ra asossiz hisoblangan.

Yana bir jihat sultonlar ibodat bilan bog‘liq masalalarga duch kelganda ularni hal qilish muftiy yoki qozilarning to‘liq zimmasida bo‘lib, bu o‘rinda jo‘nglarda batafsil bayon qilingan.

Jo‘ngda sulton yoki xalifaning safarda bo‘lgan holati namoz va ro‘za hukmlariga qanday ta’sir etishi haqida bahs yuritiladi. Hanafiy ulamolar orasida ikki qarash mavjud:

Xalifa yoki sulton mamlakat hududida harakatlanar ekan, u **safar** hukmida bo‘lib, qasr namozini o‘qiydi (an’anaviy fikr).

Ammo ba’zi manbalarda (jumladan, “Muhit” va “Xulosa”) u mamlakat ichida aylanganda musofir hisoblanmasligi, chunki u butun hudud ustidan boshqaruv huquqiga egaligi ta’kidlanadi.

Quyida voqea Shayboniylar davrida hukmdorning (hukmdor ismi qayd qilinmagan) bir viloyatdan ikkinchi viloyatga safari davomida namozni to‘liq yoki qasr o‘qishlik masalasiga bag‘ishlangan.

Islom podshohi hazratlari – Xudo taolo u zotning umrini barakali qilsin – Toshkent shahridan Buxoro shahariga tashrif buyurgan ekanlar, shariat hukmiga ko‘ra, agar u zot Buxoroda muqim bo‘lish niyatini qilmagan bo‘lsalar, namozni musofir holatida (qasr tartibida) ado etishlari lozim bo‘ladimi yoki yo‘qmi, degan savol bayon qilingan. Javob: Namozni qasr qilib o‘qiydi (boshad).

Agar podshoh mamlakatdan safarga chiqsalar va uch kecha-kunduzlik safar masofasini bosib o‘tish niyatida bo‘lsalar hamda shu niyat bilan o‘zlari istiqomat qilayotgan shahar (davlat va iqbol markazi bo‘lgan bu shahar)dan chiqsalar, shariat nuqtai nazaridan, u zot mamlakatning boshqa hududiga – har qancha o‘z hukm va mulklari doirasida bo‘lsa ham – tashrif buyurmagan vaqtda musofir hukmida bo‘ladi, shuning uchun u zot namozni musofirlar singari (qasr qilib) ado etishlari lozim bo‘ladi. Shuningdek, agar u zotning amirlari va xizmatkorlari ham shu oliy

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

hazratning niyatiga ko‘ra safar qilgan bo‘lsalar, ular ham musofir hukmida bo‘ladilar, harchand ularning o‘zlaridan shaxsan safar niyati sodir bo‘lmagan bo‘lsa ham. Fatvo muallifi: Muhammad Amin Xo‘ja Kalon. Mazkur masala 994 [1586]-yilda Buxoro atrofida yuz bergan.

Yuqorida keltirilgan ikkita masalada ham podshohning safar paytidagi “musofir” maqomi haqidagi shar’iy tushuncha bayon etilgan. Qozi yoki mufti islom huquqi asosida hukm chiqarib, hukmdorning mulki keng bo‘lsa ham, u o‘z istiqomat qilgan joyidan niyat bilan chiqqanida shariat bo‘yicha musofir deb hisoblanishi ta’kidlangan.

Yuqorida keltirilgan fiqhiy masala shariat me’yorlari doirasida sulton va xalifalarning ibodatga oid amallarini tartibga solishda muhim o‘rin tutgan. Chunki hukmdorning safar sharoitida diniy burchlarni ado etish tartibi hamda uning shar’iy hukmlarga munosabatini belgilash masalasi huquqiy-normativ va amaliy jihatdan qator murakkab masalalarni yuzaga keltirgan. Shuning uchun ham mazkur masalalar sulton va xalifalar oldida turgan muhim fiqhiy muammolardan biri sifatida baholangan. Bu holat, bir tomondan, hukmdorning shariat me’yorlariga bo‘ysunuvini va diniy qonunlarga amal qilishdagi mas’uliyatini namoyon etsa, ikkinchi tomondan, fiqh ilmining o‘sha davrda siyosiy hamda ma’muriy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu tariqa, bunday fiqhiy muammolarning tahlili orqali hukmdorining ibodatga oid masalalarda shariat hukmlarining pozitsiyasi va faqihlar bilan amaliy hamkorlik hamda maslahatlashuv an’anasining qay tarzda shakllanganini aniqlash mumkin bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, jo‘nglar islom huquqi va davlat boshqaruvi o‘rtasidagi munosabatning tarixiy rivojini ochib berishda muhim manbaviy va nazariy asos vazifasini bajaradi.

Xonliklar davrida hukmdorlarning muayyan masala borasida qarorlarini mahalliy muftiylar tomonidan muhokama qilingani haqida ayrim jo‘ng to‘plamlarda ko‘rish mumkin. Masalan, hukumat mulozimlarini (*muxtasib, muftiy* va hokazo) maosh bilan ta’minlash maqsadida hukmdorning Buxoro ahlidan o‘z hisoblaridan mablag‘ berish bo‘yicha xon buyrug‘i bayon qilingan. Va mahalliy ulamolar mazkur buyruqni muhokama qilib uni joizligiga shar’iy dalil bilan asoslashga harakat qilgan.

Movarounnahrda hukmdorlar huzurida bahsli fatvolarni muhokama qilish odati ham bo‘lgan. Va ba’zida muftiylar tomonidan hukm chiqarishda qo‘yilgan xatosi uchun javobgarlikka tortilish holatlari ham uchrab turgan. Misol uchun, bir “Jo‘ng” to‘plamida guvohning qasam ichish va ichmasligi bo‘yicha quyida bir masala o‘rin olgan.

“Islom qozisi ikki guvohdan birini qasam ichirmasdan hukm chiqarishi hozirgi zamonda joiz va kuchga egami? Javob: yo‘q. Bu haqda “Mabsut”, “Hidoyat al-muftiyin” va “Sharh al-Quduriy” asarlaridan rivoyatlar mavjud. Shuni qoralovchi (Muhammad Amin muftiy kalon) bu zamonning ba’zi muftiylari tomonidan shunday

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

fatvo yozgan edi. Unda qoziga guvohlardan biri qasam ichmasdan hukm chiqarish mumkin, degan fikr bayon etilgan. (Muhammad Amin muftiy kalon) mazkur fatvoni hijriy 909-yili (1503–1504-y.) Buxorodagi ulug‘ ulamolar va faqihlar huzurida, sulton hazratlarining majlisida muhokama qilish uchun taqdim etdi. Ushbu fatvo mazmuni ulamolar ishtirokida muhokama etildi va natijada muftiyning fatvosi Samarqand poytaxtiga, oliy hukmdor hazratlari xoqonning huzurlariga yuborildi. Samarqand ulamolari va aholisi bu masalani uch kun davomida muhokama qildilar va yakdillik bilan shunday qarorga keldilar: biron bir guvohning qasam ichirmasdan hukm chiqarilishi shariatga ko‘ra nojoiz va bunday hukm haqiqiy hisoblanmaydi. Shundan so‘ng xalifalik himoyasi ostidagi adolat idorasidan maxsus hujjat va farmon kelib, mazkur muftiyni Buxorodan chiqarib yuborish haqida amr berildi va bu buyruq bajarildi. Bu yerda aynan qaysi muftiy haqida gap ketayotgani bizga noma’lum bo‘lsa-da, lekin bahsli hukmlar, albatta, podshohning huzurida ulamolar kengashida muhokama qilinib, tegishli choralar ko‘rilgan.

Ashtarxoniy Imomqulixon (1611–1642) davrida bir guruh ulamolar Shayboniylar davrida ko‘rilgan tamaki mahsulotlarini iste’moli bo‘yicha fatvoni qayta Imomqulixon huzurida muhokamaga qo‘yilgan va bu uchrashuvda o‘z davrining ulamolari ishtirok etishgan va ular: Darvish Muhammad ibn Sulton Muhammad, Alibek ibn Sulton Jalil, Hasan ibn Abdulaziz Qabbodioni ()
Temur Ali ibn Abdulloh; Qozi al-quzzot Abu al-Sanoi, Muhammad Qosim ibn Subhonquli, Muhammad Mo‘min ibn Abdurrahmon va boshqa muftiylar.

Ashtarxoniylar davri buyuk allomasi va muftiysi Oxund Mullo Boqijon bir fatvosida mamlakatda to‘g‘ri yo‘ldan adashgan jamoalarning yuzaga kelgani va ular yurtda tartibsizlikka yo‘l qo‘yayotgani, turli shahar va qishloqlarda musulmonlarga hujum uyushtirayotgani va erkaklarni o‘ldirib, ayol va bolalarni asir qilib olib ketish holatlar kuzatilayotgani va bu bilan jamiyatga yetkazilayotgan ziyon zulmlarning ortib borishi haqida Podshohni ogohlikka chaqirib ularga qarshi kurash zarur (*farz*) ekanligi haqida fatvosi bayon qilingan.

Movarounnahr hukmdorlari qozi va muftiylarni shar’iy hukmlarni chiqarishda bir qator talab va vazifalarni ilgari surishgan. Buni biz xonlar tomonidan mansabga tayyinlashda berilgan yorliqlarda ko‘rish mumkin. Masalan, Qo‘qon xoni Xudayorxon tomonidan 1282/1865-yili Andijon viloyatiga qozi al-quzzot etib Domla Jabbarquli tayinlash haqida yorliqda, qozilarning vazifa va vakolatlari, asosan, qozixona hujjatlarini ro‘yxatga olish *(kitobati sukuk va sijillat)*, vasiqalar, rivoyatlar va boshqa hujjatlarni qayd qilish *(dar sabti vasoiq va rivoyot va maxzarot)*, da’volarni hal qilish *(qat’i xusumot),* nikoh shartnomalarini tuzish *(uqudi ankaha)*, merosga doir masalalarni ko‘rish *(matrukai muslimin)*, vasiylik ishlari *(avsiya)*, ojiz (yetim)lar huquqini himoya qilish *(zabti amvoli aytom va majanin)* kabilardan iborat bo‘lgan. Yuqoridagi qozilik uchun sanab o‘tilgan

vazifalar O‘rta Osiyoning Buxoro va Xiva xonlikdagi yorliqlariga uchraydi. Masalan, Buxoro amirligida Amir Nasrulloh tomonidan 1247/1832-yilda Oxund Mir Sayyid Olimni Karmina viloyatiga va 1267/1850-yilda Jizzax viloyatiga qozilik mansabiga tayinlashda berilgan yorliqlarda ham yuqorida sanab o‘tilgan vazifalar belgilangan. Faqat mazkur yorliqlarda belgilangan vazifalardan boshqa jazo (hadd), qasos va diyat kabi masalalarni hal qilish Buxoroning katta qozi vakolatiga yuklatilgan.

Qo‘qon xoni Muhammad Nasriddin tomonidan 1292/1875-yilda Oxund Maxdum domla xoja Kalonni qozi askar qilib tayinlangani yorliq mavjud. Unda hududdagi barcha qozilar, ulamolar va aholi uni mansabini qabul qilish va unga barcha tortishuvli masalalarda murojaat qilishi so‘ralgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ал-Бухорий, Муҳаммад Шариф. Фавойид ҳоқонийя. Ҳақонга аталган фойдалар: М.Нуриддинов, М. Ҳасаний; Кириш сўзи. М. Нуритдиновники. – Тошкент: Адолат, 1995. – 56-б.

2. Аминов Ҳ., Примов С. Ҳанафий фиқҳи тарихи, манбалари ва истилоҳлари (Фиқҳ фанидан ўқув қўлланма). – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2007.

3. Асророва Л.Қ. Алоуддин Бухорий “Ҳайрату-л-фуқаҳо” асарининг ислом манбашунослигида тутган ўрни. – Тошкент: “Тафаккур нашриёти”, 2024.

4. Жўнг маъа Мухтасар ал-виқоя ЎзР ФА ШИ литографияси, № 6550. Ноширн: Мулло Муҳаммадий Маҳдум. Бухоро. Когон. 1327/1909.

5. Каталог среднеазиатских жалованных грамот. Из фонда Института востоковедения им. Абу Райхана Беруни Академии Наук Республики Узбекистан. Составители: А. Урунбаев, Г. Джураева, С. Гуломов. Orientwissenschaftliche Hefte. – Halle, 2007. – С. 66 (№ 120, 121)

6. С. Мухамммадаминов. Влияние Индийских фетв на Центральную Азию. – С. 201–213.

7. СВР. (Собрание восточных рукописей [Института востоковедения имени Абу Райхана Беруни]) Т. VI / под ред. и при участии А. А. Семенова и Д. Г. Вороновского. – Ташкент: Изд-во “Фан” Узбекской ССР, 1963. Оп. № 4843.

8. СВР. (Собрание восточных рукописей [Института востоковедения имени Абу Райхана Беруни]) Т. VIII. Оп. № 5886–5889.

9. Эркинов А., Полвонов Н., Аминов Ҳ. Муҳаммад Раҳимхон II – Феруз кутубхонаси фехристи. (Хоразмда китобат ва кутубхоначилик тарихидан) – Т., Янги аср авлоди. 2010. – Б. 208;

10. Ҳожи Халифа. Кашф аз-зунун. 2-жилд. – Истанбул: “Маориф”, 1941. – С. 1826.

11. Alan, M. Guenther. Hanafi Fiqh in Mughal India: The Fatawá-i ‘Alamgiri. Oxford in India Readings. Themes in Indian History. – New Delhi: Oxford University Press of India. 2003. – Pp. 209–229.